

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhammadov, A.A.Ergashev

Alovida ta'limga ehtiyoji bor bo'lgan o'quvchilarga ta'lim- tarbiya berishni takomillashtirish omillari 7

J.E.Tursunov

O'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini shakllantirishda fanlararo bog'lanish..... 12

FALSAFA, SIYOSAT

N.S.Normatov, Z.S.Jumanov

Bemorlarning huquqlarini amalga oshirish bilan bog'liq tibbiy xizmatlarda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektdan foydalanish istiqbollari..... 18

M. B.Xudaybergenova

Oliy ta'lim muassasalari talabalari orasida mutolaa madaniyatini shakllantirish: joriy muammolar va yechimlar tadqiqoti 26

ТАРИХ

M.H.Isamiddinov, N. Sh.Kambarov

Fag'onaning ilk bronza davri jamoalari 30

O.V.Mahmudov

«O'rta asr Yevropa tarjima markazlari» tushunchasi va uning ilmiy iste'moliga oid..... 36

N.Sh.Kambarov, I.S.Xakimova, A.R.Poziljonov

Jaliltepa yodgorligining Farg'ona vodiysi qadimgi davri madaniyatlaridagi o'rni 45

D.A.Aytimova

Qoraqalpog'istonda dastlabki kutubxonalarning shakllanishi va rivojlanish tarixidan 49

B.M.Abdullayev, N.Sh.Kambarov, A.R.Poziljonov

Andijon viloyatidagi Xonobod-1 yodgorligida ikkinchi mavsum dala tadqiqot natijalari 54

Sh.T.Quldashev

“Tarixi shavqiy” asari: topilishi va ilmiy tahlil 66

Q.Sulaymonov, D.Madaminov

Yangi bilimlarni o'zlashtirishda tez o'qishning ahamiyati 72

Z.N.Xatamova

Qo'qon xonligi moliyaviy tizimiga elchilik masalalarining ta'siri: Xudoyorxonzodaning “Anjum at-tavorix” asari asosida 76

I.M.Burxonov

Qo'qon xonligi tarixini o'rganishda Asomiddin O'rinoev ilmiy tadqiqotlarini o'rganilganlik darajasi 84

A.N.Maxmudova

R.X.Sulaymonov tadqiqotlarida qadimgi Sug'd moddiy madaniyati muammolari 88

A.Sharofiddinov, D.Q.Mukarramov

Toshkent yeparxiyasiga boshchilik qilgan ruhoniylar faoliyati tahlili 91

D.A.Ismoilova

Turkiston o'lkasida kon-metallurgi Hya tarixidan (XIX asr oxiri - XX asr boshlari). 96

E.L.Gasanov

Ganja shahrini ko'chish tarixining tadqiqi haqida 101

ADABIYOTSHUNOSLIK

A.G.Sabirdinov

Mirtemirning she'riy mahorati xususida 106

Z.A.Rahimov

Tarixiy romanda syujet va xarakter 110

F.Isomiddinov

Irim-sirimlar 115

D.M.Xoshimova

«Boburnoma»dagi shaxs va xarakter munosabatini ifodalovchi qiyosiy vositalarning tarjimada berilishi 120

**QO'QON XONLIGI TARIXINI O'RGANISHDA ASOMIDDIN O'RINBOYEV ILMUY
TADQIQOTLARINI O'RGANILGANLIK DARAJASI**

**УРОВЕНЬ ИЗУЧЕННОСТИ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ АСОМИДДИНА
УРИНБАЕВА ПРИ ИЗУЧЕНИИ ИСТОРИИ КОКАНДСКОГО ХАНСТВА**

**LEVEL OF STUDY OF ASOMIDDIN URINBOEV'S SCIENTIFIC RESEARCH IN
STUDYING THE HISTORY OF KOKAND KHANATE**

Burxonov Ilyosxon Muxiddinovich¹

¹Burxonov Ilyosxon Muxiddinovich

–Farg'ona politexnika instituti katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada taniqli o'zbek tarixchi olimi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, tarix fanlari doktori, Abu Rayhon Beruniy nomli davlat mukofoti sovrindori Asomiddin O'rinoevning ilmiy merosini chuqur o'rganish borasida amalga oshirilgan ishlar haqida so'z boradi. A.O'rinoev temurshunos olim sifatida mashhur bo'lsada, Qo'qon tarixini o'rganishda ham samarali faoliyat olib borganligi ochib berilgan.

Аннотация

Статья посвящена работе, проделанной по изучению научного наследия Асомиддина Уринбаева, известного узбекского историка, заслуженного деятеля науки Узбекистана, доктора исторических наук, лауреата Государственной премии имени Абу Райхона Беруни. Хотя А. Уринбаев известен как учёный-темуролог, выяснилось, что он также плодотворно занимался изучением истории Коканда.

Abstract

The article deals with the work done to study the scientific heritage of Asomiddin Urinbaev, a well-known Uzbek historian, Honored Scientist of Uzbekistan, Doctor of Historical Sciences, winner of the State 'rize named after Abu Rayhon Beruni. Although A. Urinbaev is well-known as a Temurologist, it was revealed that he was also active in the study of the history of Kokand.

Kalit so'zlar: Asomiddin O'rinoev, Qo'qon xonligi, qo'lyozma, katalog, Toshkent.

Ключевые слова: Асомиддин Уринбаев, Кокандское ханство, рукопись, каталог, Ташкент.

Key words: Asomiddin Urinbaev, Kokand khanate, manuscript, catalog, Tashkent.

KIRISH

XVIII asrning boshlarida Farg'ona vodiysida shakllangan yangi davlat Qo'qon xonligiga mahalliy aholi vakillari bo'lgan ming urug'i asos soldi. Chunonchi, XVII asrning oxiri – XVIII asr boshlarida ashtarxoniyarning siyosiy va ijtimoiy hayotida yuz bergan tushkunlik, Farg'ona vodiysi iqtisodiy mustaqilligining o'sishi hamda 1704-yilda Chodak xo'jalarining isyon ko'tarib, Farg'onaning bir qismini egallashi bunga shart-sharoit yaratib berdi. Ammo, Farg'onaning shimoli va shimoli-g'arbidagi Koson, Asht, Chodak hududlari xo'jalar qo'l ostida bo'lsa-da, ular mustaqil davlatga asos sola olmadilar [1.1.].

1709-1876-yillarda davlat sifatida rivojlangan Qo'qon xonligining siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotini o'rganishda manbalarning ahamiyati muhimdir. Chunki manbalar mualliflari xonlik hududida yashagan va o'z ko'zlari bilan ko'rgan voqe-a-hodisalarini bayon etgan.

Qo'qon xonligi tarixini o'rganish o'zbek davlatchilik tarixinining dolzarb muammolaridan biri sifatida e'tirof etilar ekan, bu masalada Asomiddin O'rinoevning ilmiy merosi katta ahamiyatga egadir. Chunki, A.O'rinoev Qo'qon xonligi tarixiga iod ko'plab qo'lyozmalar ustida ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Dunyo olimlari Asomiddin O'rinoevni temurshunos, sharqshunos olim sifatida tanisalarda, Qo'qon xonligi tarixini o'rganishga katta xizmat qo'shuvchi ilmiy tadqiqotdarni olib borganliklari ham ma'lum. Olim ilk bora Muhammad Solihxoja Toshkandiyning "Tarixi jadidayi Toshkand" asari bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borgan[2.1.]. Asomiddin O'rinoevning keyingi tadqiqotlarida Abu Ubaydullo Toshkandiyning "Xulosat al – ahvol" [3.1.], Muhyiddin Xo'qandiyning "Tarix"[4.1.], Imomali qori Qunduz (Ko'handuzi)ning "Tavorixi manzuma" [5.1.], Muhammad Fozilbekning "Mukammal

TARIX

tarixi Farg'ona"[6.1.], Mulla Niyoz Muhammadning "Tarixi SHohruxiy"[7.1.], Mirzo Olim Mushrifning "Ansob as - salotin va tavorix al-havoqin" [8.1.], Avaz Muhammad Attorning "Tarixi jahonnamoyi" [9.1.]asarlari tadqiq etilgan.

Akademik D.Yusupovaniing ta'kidlashicha, 1964, 1971, 1987-yillarda Asomiddin O'rinoev va L.M.Epifanova tomonidan Sharq qo'lyozmalari to'plamlari tayyorlangan. Asomiddin O'rinoev SHarq qo'lyozmalari to'plamining VII, IX, XI-jildlarini yaratilishida shaxsan o'zi qatnashgan va muharrirlik qilgan. Ushbu jildlarga kiritilgan Qo'qon xonligi tarixiga oid qo'lyozma manbalarni birmabir ko'rib chiqib kataloglardagi manba xaqidagi tafsiflarni o'zi yaratgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Asomiddin O'rinoevning Qo'qon xonligi tarixiga oid tadqiqotlarini o'rganiqlanlik darajasini uch guruhga ajratish maqsadga muvofiqdir. Birin guruhga sovet davrida nashr etilgan asarlari kiritilgan. Ikkinci guruh mustaqillik davrida nashr etilgan tadqiqotlar, uchinchi guruhni esa Qo'qon xonligi tarixining ayrim masalalarini o'zida aks etirgan xorijilik tadqiqotchilarning maqola va asarlari tashkil etadi.

Birinchi guruhga kiritilgan asar mualliflariga A.Muxtorov [10.1.], A.Xasanov [11.1.], F.G'offorov [12.1.], V.Ploskix [13.1.], SH.Vohidov [14.1.] va boshqalar kiritiladi.

A.Muxtorov o'z tadqiqotida Asomiddin O'rinoevning ilmiy maqolalaridan O'ra tapaning Qo'qon xonligi tarkibida bo'lgan vaqtidagi tarixini yoritishda unumli foydalangan. O'ra tapaning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy , madaniy xayoti tarixini yoritib beruvchi qo'lyozmalarning asl namunalarini tarjimasi Asomiddin O'rinoev tomonidan amalga oshirilganligi uchun ham tadqiqotchi ularga tayangan.

A.Xasanov Qirg'iziston tarixini yoritishda Qo'qon xonligi tarkibiga kirgan hududlarining siyosiy, iqtisodiy hayotida yuz bergan o'zgarishlarni tahlil etishda Asomiddin O'rinoevning maqolasiga keng to'xtalgan. "Xulomat ul-axvol" asarida keltirilgan ma'lumotlarni aynan A.O'rinoev tarjimasiga tayangan holda chorvador aholining kundalik hayoti, xon mahmurlari tomonidan ularga turli bosimlar o'tkazilganligi, natijada qo'zg'olon ko'tarilishiga olib kelinganligi yoritilgan.

F.G'offorov tadqiqotida xonlikning iqtisodiy hayoti yoritilgan bo'lib, ichki va tashqi savdo aloqalari, Rossiya hamda Qo'qon o'tasidagi iqtisodiy munosabatlarni tahlil etishda Asomiddin O'rinoev mahalliy tarixchilarning manbalarini tadqiq etib keltirgan xulosalariga tayangan.

V.Ploskix ilmiy tadqiqotining Qo'qon xonligining soliq tizimi va eksplatatsiyaning boshqa ko'rinishlari deb nomlangan bo'limida Asomiddin O'rinoevning ilmiy maqolasiga tayangan holda xonlik tarixini yorituvchi qo'lyozma manbalardan biri "Xulosa ul-ahvol"da qirg'iz va qozoq ko'chmanchi chorvadorlaridan soliq yig'ish jarayonida yuzaga kelgan salbiy holatlar va bunga davlat amaldorlarining javobi yoritilgan [13.2.262].

Sh.Vohidov bu guruhga kiritilgan tadqiqotida Asomiddin O'rinoev ilmiy maqolasiga manbalar tahlilida qisqacha to'xtalib o'tgan hamda tadqiqotning foydalanilgan adabiyotlar qismiga ham kiritgan.

Ikkinci guruh adabiyotlarga O'zbekiston mustaqillikni qo'liga kiritganidan so'ng chop etilgan va amalga oshirilgan tadqiqotlar kirib, Sh.Vohidov [15.1.], K.Vohidova [16.1.], Z.Ilhomov [17.1.], O'.Sultonov [18.1.], Sh.Maxmudov[19.1.], X.Bo'reeva[20.1.], B.Babadjanov [21.1.], Z.Xatamova [22.1.] kabi tadqiqotchilarni sanab o'tish mumkin.

Qo'qon xonligi tarixini chuqur o'rgangan manbashunos olim Sh.Vohidov tadqiqotida Asomiddin O'rinoev Qo'qon xonligi tarixiga oid manbalarni o'rgangan olim sifatida tilga olinadi. "A.O'rinoev "Xulosat ul-axvol"ni xonlik tarixini o'rganishda juda muhim manba ekanligini o'z davridayoq ehtiroy etgan", - deb qayd etadi SH.Vohidov.[15.2.]

K.Vohidovaniing tadqiqoti bevosita manbalar bilan bog'liq bo'lganligi sababli ularni qiyosiy tahlil etishda Asomiddin O'rinoevning ikkita maqolasiga tayangan.

Z.Ilhomov Asomiddin O'rinoevning ilmiy tadqiqotlariga Rossiya podsholigi Qo'qon xonligini bosib olish davrini tahlil etish jarayonida to'xtalgan [17.2.16 b.].

O'.Sultonov "Tarixi jadidayi Toshkand" asarini tadqiq etilish tarixini yoritganida Asomiddin O'rinoev ilmiy merosiga murojaat qilgan [18.2.7b.]. Muallif hayoti, asar tarixi, undagi geografik nomlar ilk marotaba Asomiddin O'rinoev va O.Bo'reevlar tomonidan ochib berilganligi ta'kidlangan.

Sh.Maxmudov Qo'qon xonligi mahmuriy boshqaruvida mansabdorlar, ularni lavozimga tayinlash, mamlakatda soliq va soliqqa tortish masalalarini tahlil etishda Asomiddin O'rinoev tadqiqotiga murojat qilgan[19.2.110b.].

X.Bo'rieva Toshkent shahri tarixini yoritishda va shahardagi joy nomlarini kelib chiqishini tahlil etishda Asomiddin O'rinoevning ilmiy tadqiqotlariga tayanib xulosalar keltiradi. Muhammad Solihxojaning Toshkent shahri toponimiyasiga doir ma'lumotlarini chuqur tahlil etilganligiga alohida urg'u bergen [20.2.5 b.;10 b.]. Masalan, Toshkentning to'rt dahadan iborat topografiysi va shu ma'muriy birliklar doirasiga kiritilgan atrof yerlar geografiyası "Tarixi Jadidayi Toshkand" asari asosida Asomiddin O'rinoev va O.Bo'riev talqinida keltirilgan [20.3.29 b.]. Toshkent darvozalarini turli manbalarda nomlanishi bo'yicha jadvalni ham X.Bo'rieva Asomiddin O'rinoova va O.Bo'rievlarning "Toshkent Muhammad Solih tasnifida" nomli asarga tayanib tuzgan [20.4.34 b.].

B.Babadjanov tadqiqotida Qo'qon xonligining tashkil topishi, siyosi, iqtisodiy, madaniy rivojlanishi, hukmdorlar xronologik tahlili kabi masalalar suqur o'rganilgan bo'lib, Asomiddin O'rinoevning Qo'qon xonligi tarixiga oid tadqiqotlaridan keng foydalanilgan[21.2.722 b.].

Z.Xatamovaning ilmiy maqolalarida Asomiddin O'rinoev Qo'qon xonligining iqtisodiy xayotiga oid mahlumotlarni beruvchi ilmiy meros qoldirganligi, bu meros xonlik tarixinining barcha sohalarida ahamiyatlari ekanligi tahkidlanadi. Xonlik soliq tizimini chuqur o'rganishda Asomiddin O'rinoev "Xulosat ul-ahvol" asarida keltirilgan sohaga oid ma'lumotlari rus tarixchilari asarlarida keltirilgan ma'lumotlar bilan qiyosiy tahlil etiladi[22.2.].

Tadqiqotning o'rganilganlik darajasining uchinchi guruhini xorijiy mamlakatlarda chop etilgan adabiyotlar tashkil etib, ularga J.Tulibaeva va G. Isaxan³, S.Emishbaev, Dj. Abdukarimov, J.Alimbaev kabi xorijlik olimlarning tadqiqotlarini kiritish mumkin.

J.Tulibaeva va G. Isaxanlarning tadqiqotida Asomiddin O'rinoev va L.M.Epifanova tomonidan tayyorlangan Sharq qo'lyozmalari to'plami VII, IX, XI-jildlaridan keng foydalanilgan. J.Tulibaeva va G. Isaxanlar ushbu kataloglarni aynan Qo'qon xonligi tarixiga oid manbalarda Qirg'iziston tarixini yoritilishi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqqanlar.

XULOSA(CONCLUSION)

Yuqoridagi uch guruh adabiyotlar tahlilini o'rganilishidan shuni xulosa qilish mumkinki, Qo'qon xonligi tarixini o'rganishda bugungi kungacha Asomiddin O'rinoev ilmiy merosidan O'zbekiston, Qozog'iston, Qirgiziston, Tojikiston davlatlaridagi tarixchi olimlar o'z ilmiy tadqiqotlarida keng foydalanishadi. Bu esa Asomiddin O'rinoev ilmiy merosini ahamiyatidan darak beradi. Shuning uchun ham bugun olimdan bizga qolgan ilmiy tadqiqotlarni chuqur o'rganish zarur.

ADABIYOTLAR (REFERENCES)

- 1.Eshov B. «O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi», - Toshkent, 2012. – [htt's://shosh.uz/qoqon-honligi-katta-maqola](http://shosh.uz/qoqon-honligi-katta-maqola).(Eshov B. "History of Statehood and Administration of Uzbekistan", - Tashkent, 2012.)
- 2.O'zRFA SHI qo'lyozmasi № 9455.(Manuscript No. 9455 of the MI of the UzRNA)
- 3.O'zRFA SHI qo'lyozmasi № 2080; SVR. Istoriya. – Opis. № 568; Urinbaev A. Neizvestnaya rukopis' po istorii Kokandskogo xanstva. // Izvestiya AN UzSSR.Oboshestvennie nauki. – № 3. – Tashkent, 1957. – S. 33-38. (Manuscript No. 2080 SGI UzRFA; SVR. Story. - Description. No. 568; Urinbaev A. Unknown manuscript on the history of the Kokand Khanate. // News of the Academy of Sciences of the Uzbek SSR. - No. 3. - Tashkent, 1957. - S. 33-38.)
- 4.O'zRFA SHI qo'lyozmasi № 604. (Manuscript No. 604 of the MI of the UzRNA)
- 5.O'zRFA SHI qo'lyozmasi № 597; SVR. Istoriya. – Opis. № 651; (Manuscript No. 597 of the MI of the UzRNA)
- 6.O'zRFA SHI qo'lyozmasi № 5971. (Manuscript No. 5971 of the MI of the UzRNA)
- 7.SVR. Istoriya. – Opis. № № 572-573.(SVR. history. – Description. Nos. 572-573.)
- O'zRFA SHI qo'lyozmasi № 1314 (Manuscript No. 1314 of the MI of the UzRNA); Mirzo Olim Mushrif. Ansob us salotin va tavorix ul – xavoqin. / Nashrga tayyorlovchilar A. Matgoziev, M.Usmonova. – Toshkent, 1995. – 128 b.(Mirza Olim Mushrif. Ansab us saladin and tavarikh ul-khavakin. / Preparers for publication A. Matgoziev, M. Usmonova. - Tashkent, 1995. - 128 p.); O'sha muallif. Ansab us salatin va tavarix al-xavakin. Vvedenie SH. Vaxidova, perevod teksta, primechaniya, ukazateli i poslesloviya Salidjan Yuldasheva. / Istoriya Uzbekistana v arabograficheskix istochnikax. Tom I. – Tashkent, 2007. – 254 s.(That author. Ansab us salatin wa tawarikh al-khawakin. Introduction by Sh. Vakhidova, text translation, notes, indicator and afterword by Salidzhan Yuldasheva. History of Uzbekistan and Arabic-graphic history. Volume I. - Tashkent, 2007. - 254 p.)
- 8.O'zRFA SHI qo'lyozmasi № 9455. (Manuscript No. 9455 of the MI of the UzRNA); Avaz Muxammad Attor. Tarixi jaxonnamoyi. Fors-tojik tilidan SH.Voxidov tarjimasi. // SHarq yulduzi. –Toshkent, 1991. – № 8. – B. 119-137(Avaz Muhammad Attar. History of the world. Translated from Persian-Tajik by Sh.Vohidov. // Star of the East. - Tashkent, 1991. - No. 8. - S. 119-137.); SVR. Istoriya. – Opis. № 571. (SVR. history. – Description. Nos. 571.)
- 9.Muxtarov A. Materiali po istorii Ura-tyube. / Sostavlenie, perevod i predislovie. – Moskva, 1963. – 66 s.; O'sha muallif.Ocherk istorii Ura-Tyubinskogo vladeniya v XIX v. – Dushanbe: Izd-vo AN Tadj SSR, 1964. – 186 s. (Mukhtarov A. Materials on the history of Ura-tube. Composition, translation and preface. - Moscow, 1963. - 66 p.; The same author

TARIX

Essays on the history of the Ura-Tyube possession in the 19th century. - Dushanbe: Publishing House of the Academy of Sciences of the Taj SSR, 1964. - 186 p.)

10.Xasanov A. X. Narodnqe dvijeniya v Kirgizii v period Kokandskogo xanstva. – Moskva: Nauka, 1968. – 92 s.(Khasanov A.Kh. People's movement in Kyrgyzstan during the period of the Kokand Khanate. - Moscow: Nauka, 1968. - 92 p.)

11.G'afforov F. Rossiya - Qo'qon xonligi o'rtaqidagi karvon yo'lari (XIX asr I yarmi). // O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. – Toshkent, 1969. – № 2. – B. 58-61; O'sha muallif. Rossiya bilan Qo'qon xonligi o'rtaqidagi iqtisodiy va siyosiy aloqalar (XIX asni birinchi va 60-70 yillar). Tarix fan. nomz... diss. – Toshkent, 1969. – 226 b. (Gafarov F. Caravan routes between Russia and the Kokan Khanate (the first half of the 19th century). // Social sciences in Uzbekistan. - Tashkent, 1969. - No. 2. - S. 58-61; That author. Economic and political relations of Russia with the Kokan Khanate (the first and 60-70s of the XIX century). History is science. nomz... diss. - Tashkent, 1969. - 226 p.)

12.Ploskikh V.M. Kirgizq i Kokandskoe xanstvo. – Frunze: Ilim, 1977. – S. 368.(Ploskikh V.M. Kyrgyz and Kokand Khanate. - Frunze: Ilim, 1977. - S. 368.)

13.Vaxidov SH. Avaz Muhammad Attar i yego sochinenie "Tarixi djaxannumai" (Tuxfat ut-tavarixi xani). Issled. per. i primech. Diss...kand. ist. nauk. – Tashkent: IV AN RUZ, 1990. – 154 s. Vakhidov Sh. Avaz Mohammad Attar wrote his book "Tarihi jahannumai" (Tuhfat ut-tawarikh khani). Research per. I note. Diss... cand. ist. science - Tashkent: IV AN RUZ, 1990. - 154 p.)

14.Voxidov SH. O meditarnost Kokandskoy istoriografii(Kazaxi i Kokandskoe xanstvo). / International journal jf Central Asian Studies. – v 6. – 2001.(Vohidov Sh. About the Meditality of Kokand Historiography (Kazakh and Kokand Khanates). / International journal jf Central Asian Studies. - v. 6. - 2001.)

15.Vohidova K. Ishoqxon Junaydulloxo xo'ja o'g'li Ibrat va uning tarixiy-ilmiy merosi. Tarix fan. nomz. diss.. – Toshkent, 2002. – 126 b.(Vakhidova K. Ibrat, son of Ishak-Khan Junaydulla-Khoja and his historical and scientific heritage. History is science. diss. name. - Tashkent, 2002. - 126 p.)

16.Ilxomov 3. Aliqli Amirlashkar va uning Qo'qon xonligi siyosiy tarixida tutgan o'rni. Tarix fan. nomz... diss. – Toshkent, 2004. – 160 b. (1. Ilhomov 3. Aliguli Amirakar and his role in the political history of the Kokhan Khanate. History is science. nomz... diss. - Tashkent, 2004. - 160 p.)

17.Sultonov O'. Muhammad Solihxojaning "Tariji jadidayi Toshkand" asari muhim tarixiy manba sifatida (XIX asr). Tarix fan.nomz... diss. – Toshkent, 2007. – 157 b.; O'sha muallif. Muhammad Solihxaja va uning "Tariji jadidayi Toshkand" asari. – Toshkent: "O'zbekiston", 2009. – 269 b.(Sultanov O'. The work of Muhammad Salikhodzhi "Tariji zhadayi Tashkent" as an important historical source (XIX century). Historical science., nomz ... diss. - Tashkent, 2007. - 157 p.; That author. Muhammad Salikhkhoja and his work "History of Tashkent". - Tashkent: "Uzbekistan", 2009. - 269 p.)

18.Maxmudov SH. Qo'qon xonligining mahmuriy boshqaruv tizimi. Tarix fan.nomz... diss. – Toshkent, 2007. – 166 b.(1. Makhmudov Sh.Kh. The administrative system of the Kokan Khanate. Historical science., nomz ... diss. - Tashkent, 2007. - 166 p.)

19.Bo'reeva X.Toshkent shahrining tarixiy toponomiyasi (XIX asr oxiri- XX asr boshlari). – Toshkent: Noshirlik yog'dusi, 2009. – 212.(Borieva H. Historical toponymy of the city of Tashkent (late 19th century - early 20th century). - Tashkent: Publishing House, 2009. - 212 p.)

20.Babadjanov B.M. Kokandskoe xanstvo: vlast, politika, religiya. – Tokio-Tashkent, 2010. 743 s.(Babadzhanov B.M. Kokand Khanate: power, politics, religion. - Tokyo-Tashkent, 2010. 743 p.)

21. Xamatova Z. Qo'qon xonligi soliq tizimining o'rganilishiga doir. // "Farg'ona vodiysi tarixi yangi tadqiqotlarda" mavzusidagi III respublika ilmiy anjumani materiallari. – Farg'ona, 2014. – B. 212-214; O'sha muallif. Qo'qon xonligida soliq tizimi tarixidan. // O'tmishga nazar jurnali, Jurnal of look to the past. – Toshkent, 2019. № 13. – B. 75-86; O'sha muallif. Expenditure of state funds replenished by taxes in the history of the Kokand khanate. // EPRA International Journal of Research and Development (IJRD). – 2020. vol. 5. Issue 3. – p. 274-277; O'sha muallif. Qo'qon xonligida soliqlar xisobiga to'ldirilgan xazinaning sarf etilishi. // O'tmishga nazar jurnali, Jurnal of look to the past. – Toshkent, 2020. Maxsus son. – B. 590-595; O'sha muallif. Qo'qon xonligda soliq tizimi tarixdan, arxiv xujjatlari asosida. // Vodiyoma. – Andijon, 2020. № 3. 78-85 betlar.(Khatamova Z. On the study of the tax system of the Kokan Khanate. // Materials of the 3rd republican scientific conference on the topic "History of the Fergana Valley in new research". - Fergana, 2014. - S. 212-214; That author. From the history of the tax system of the Kokan Khanate. // Log of a look into the past. - Tashkent, 2019. No. 13. - P. 75-86; That author. Expenses of state funds replenished at the expense of taxes in the history of the Kokand Khanate. // EPRA International Journal of Research and Development (IJRD). - 2020. Issue. 5. Issue. 3. - p. 274-277; That author. Expenses of the treasury replenished with taxes in the Kokan Khanate. // Log of a look into the past. - Tashkent, 2020. Special issue. - B. 590-595; That author. The tax system in the Kokan Khanate - from history, based on archival documents. // Valley. - Andijan, 2020. No. 3. S. 78-85.)

22.Tulibayeva J., Isaxan G. Arabograficheskie istochniki po istorii Kazaxstan: Fond instituta vostokovedenie Akademik nauk Respublikи Uzbekistan. – Astana, 2013. – 154s.(Tulibayeva Zh., Isakhan G. Arabographic sources on the history of Kazakhstan: Foundation of the Institute of Oriental Studies Academician of Sciences of the Republic of Uzbekistan. - Astana, 2013. - 154 p.)